
XATLOV JARAYONLARI DAVOM ETMOQDA

Tuman IIB boshlig'i, 3-sektor rahbari Xojiakbar Toshpo'latov joylarda bo'lib, xatlov davomida mahalla xodimlari bilan xonadonlarda bo'lyapti. Bugun tuman IIB boshlig'i 3-sektor hududidagi mahalla fuqarolar yig'inlarida olib borilayotgan uyma-uy yoshlar xatlovi jarayonlari bilan tanishdi. 3-sektor rahbari xonadonlarda bo'lgan chog'ida oilalarning katta-kichiklari bilan yuzma-yuz suhbatlashdi, ularning faoliyatlari bilan tanishdi. Yuzma-yuz suhbatlarda tushgan barcha murojaatlar daftarlarga qayd qilib, ijroga qaratish choralari belgilanyapti. Yoshlar xatlovi qizg'in davom etyapti.

2022-11-19 16:12:44